



Types of corruption in the educational system of the republic of uzbekistan and effective mechanisms of combating IT

Rakhmatulla MIRZAYEV¹

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 July 2023
Accepted 25 July 2023
Available online
15 August 2023

Keywords:

corruption,
corrupt actions,
higher education,
special secondary education,
corruption-free sphere,
prevention of corruption,
conditions,
legal punishment.

ABSTRACT

In this article, positive progress has been observed in the fight against corruption in our country in recent years, including the launch of the "Corruption-free sector" project based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on May 27, 2019 "On measures to further improving the system of fighting corruption in the Republic of Uzbekistan". It is the main focus of this process is on reducing the possibility of committing corrupt acts, that this experience is also having good results in the higher and secondary special education system, in order to make the admission process to higher educational institutions transparent and fair based on the "Higher Education Corruption Free Zone" program, first of all, the process of applying for the bachelor's degree that it will be implemented online, and the details of the work carried out in recent years to prevent corruption in the higher and secondary special education system of our country.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp74-84>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaning turlari va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

korrupsiya,
korrupsion harakatlar,
oliy ta'lim,
o'rta maxsus ta'lim,
korrupsiyasiz soha,

Ushbu maqolada, so'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida ijobiy siljishlar kuzatilayotganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

¹ PhD in Law, Associate Professor, Samarkand State University named after Sharof Rashidov. Samarkand, Uzbekistan. E-mail: Saidibodullayev@gmail.com

korrupsiyaning oldini olish,
shart-sharoit,
qonuniy jazo.

asosida “Korrupsiyasiz soha” loyihasi ishga tushirilganligi, bu jarayonda asosiy e’tibor korrupsion harakatlarni sodir etish imkoniyatini qisqartirishga qaratilganligi, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimida ham bu tajriba yaxshi samara berayotganligi, “Oliy ta’lim korrupsiyasiz soha” dasturi asosida oliy o’quv muassasalariga qabul jarayonini shaffof va adolatli o’tkazish maqsadida, avvalo, bakalavriatga hujjat topshirish jarayoni onlayn amalga oshiriladigan bo’lganligi va mamlakatimiz oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimida korrupsiyaga yo’l qo’ymaslik borasida so’nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarning tafsilotlari haqida so’z borgan.

Виды коррупции в системе образования Республики Узбекистан и эффективные механизмы борьбы с ней

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коррупция,
коррупционные действия,
высшее образование,
среднее специальное образование,
свободная от коррупции сфера,
предупреждение коррупции,
условия,
правовое наказание.

В данной статье подчеркиваются положительные сдвиги в борьбе с коррупцией в нашей стране за последние годы, включая запуск проекта «Сфера без коррупции». Этот проект был основан на Указе Президента Республики Узбекистан от 27 мая 2019 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан». Основное внимание в рамках этого проекта уделяется снижению возможности коррупционных действий. Этот опыт дает положительные результаты в системах высшего и среднего специального образования, делая процесс приема в высшие учебные заведения прозрачнее и справедливее в рамках программы «Высшее образование – сфера без коррупции». Особенно стоит отметить, что процесс подачи заявлений на получение степени бакалавра будет реализован в онлайн-формате. Статья также подробно рассказывает о работе, проведенной в последние годы, по предотвращению коррупции в системах высшего и среднего специального образования нашей страны.

So’ngi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo’naltirilgan tizimli choralar ko’rilmoqda.

Korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nutqida “Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz”, [1] deb ta’kidlagan edi.

Davlatning korrupsiyaga qarshi yo’naltirilgan barcha islohotlari fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko’zlab amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ta’lim sohasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, "Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmi bo'laman degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkazamiz" [2], deb ta'kidlagan edi.

Ta'lim sohasidagi korrupsiyaning tuzilishini chuqur va aniq tushunish uchun uning yuzaga kelishi sabablari va tartibga solish mexanizmlarini aniqlash zarur. Ta'lim tizimi bir nechta usullar bilan korrupsiyalangan bo'lishi mumkin. Masalan:

- ta'lim berish vakolat-vazifalari orqali;
- tovar va xizmatlarni yetkazib berish orqali;
- nomunosib kasbiy xatti-harakatlar natijasida;
- soliqqa tortish va mulkchilik sohasida [3].

Korrupsiya rejalashtirish va boshqarishning barcha sohalari: axborot tizimlari, maktablar qurish, pedagoglarni tanlash va tayinlash, ularning mansab pillapoyasi bo'ylab ilgirilashi (shu jumladan, rag'batlantirish tizimi), jihozlar va darsliklarni yetkazib berish hamda taqsimlash, mablag'lar ajratish (stipendiyalar, subsidiyalar va boshqalar), imtihonlarni o'tkazish, attestat va diplomlarni berish, o'quv muassasalaridan tashqarida tadbirlarni o'tkazish hamda boshqa sohalarga taalluqlidir.

Ta'lim sohasidagi korrupsiya oqibatlarining har xil turlari mavjud. Xususan:

- korrupsiya, boshqa davlat sektorlarida bo'lgani kabi, moliyaviy resurslarning talon-taroj qilinishiga olib keladi;

- o'qishga kirishdagi g'ayrioddiy talablar kuchayib ketganda, imtihonlar jarayonidagi poraxo'rliklar tufayli iste'dodli yoshlardan noratsional foydalanilganda, yoshlar orasida korrupsiya (noqonuniy harakatlar va favoritizm) keng avj olgan holatlarda o'quvchi va talabalarning bilim olish imkoniyatlari keskin pasayadi. Buning ustiga, ularning o'zlari ham korrupsiyaga o'ralashib qoladilar.

Bunday oqibatlar har qanday davlat sektori uchun ham xarakterli emas. Bu oqibatlar ta'lim tizimining asosiy funksiyalari bilan chirmashib ketadi, Binobarin, ularni keltirib chiqargan korrupsiya ham bevosita ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Xodimlar (ayniqsa, o'qituvchilar tarkibi) va xizmat ko'rsatiladigan aholi soni nuqtai nazaridan ta'lim sektori davlatning ikkinchi yoki eng yirik sektoridir. Ta'lim xizmatlari maktabgacha va maktab yoshidagi bolali oilalar, yoshlar hamda o'qishga qaror qilgan barcha shaxslarga mo'ljallangan. Bu shuni anglatadiki, mamlakatda juda ko'p odamlar ta'lim sohasidagi korrupsiya oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Bu holat ta'lim sohasida korrupsiyani qaltis siyosiy muammoga aylantiradi [4].

Agar fuqarolar davlat va jamoat institutlaridan faol tarzda hisobdorlikni talab qilmasa, qonunchilikni kuchaytirish va samarali boshqariladigan institutlarni ta'sis qilish, korrupsiyaning oldini olish uchun yetarli bo'lmaydi.

Darhaqiqat, o'quvchilarga axloqiy ta'lim-tarbiya berish korrupsiyaga qarshi kurashishga yordam beradi, negaki yoshlar har qanday davlatning kelajagidir. Korrupsiyaga qarshi ta'lim alohida ishlay olmaydi. Bolalar va yoshlar ta'lim oladigan muhit ularning munosabatlarini shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, axloqiy ta'lim sohasida (xususan, o'qituvchilar va murabbiylar doirasida) o'zaro munosabat va xulq-atvorni o'zgartirish bo'yicha sa'y-harakatlarning bir qismi bo'lishi lozim. Boshqaruvni takomillashtirish va mazkur sohadagi xodimlar ustidan ijtimoiy nazoratni kuchaytirish zarur.

Ta'lim sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar butun ta'lim muhitiga taalluqli bo'lishi, bunda halollik, ezgu boshqaruv qadrlanadigan, soha qanday ishlayotganligi va moddiy boyliklar qanday sarflanayotganligi samarali, shaffof va jamoatchilik nazorati mexanizmiga ega bo'lishi lozim. Ta'lim tizimida korrupsiya muammosini tahlil qilar ekanmiz, davlat boshqaruvini ta'minlash uchun fuqarolarning munosabati muhim ekanligini tushunish zarur bo'ladi.

Ta'lim tizimining zaif tomonlari xodimlar, moliyalashtirish va davlat xaridlari hisoblanadi. Xodimlar masalasidagi potensial zaif nuqtalarga, xususan, qonunchilikning va asosiy boshqaruv tamoyillarining mukammal emasligi korrupsiyaga qarshi kurashish imkonini bermaydi. Amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlay olmaslik davlat boshqaruv tizimida shaffoflik, nazorat, samarali ishlashga rag'batning yo'qligidan dalolat beradi [5].

Moliya tizimining ehtimoliy zaif tomonlari ushbu tizimni demarkazlashtirish natijasida qayta qurish uchun imkoniyatlarning yo'qligini, ichki va tashqi nazoratning yetarli emasligini o'z ichiga oladi.

Davlat xaridlari tizimining zaif tomonlari raqobatbardosh va adolatli tartib-qoidalarga asoslangan savdolarini o'tkazish va shartnomalar tuzish uchun xalqaro standartlarga mos kelmaydigan yuridik qoidalarni, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kuchsiz qonunchilik va asosiy tamoyillarni, shuningdek, samarasiz ichki va tashqi nazorat qilish hamda shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda korrupsiya ko'p jihatdan siyosiy tizimlarning barqarorligiga, mavjud huquqiy asosiga, ommaviy axborotning ochiqligi va shaffofligiga, ayrim mansabdor shaxslar va muassasalarning javobgarlik darajasiga, mavjud boshqaruv mexanizmlarining samaradorligiga, shuningdek, xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq bo'lishi qayd qilinadi [6].

Davlat darajasidagi korrupsiya shaxsiy moddiy foyda olish uchun mansabdor shaxslarning vakolatlarini suiiste'mol qilishni anglatadi. Biroq, ta'lim – muhim ijtimoiy boylik. Shuning uchun kasbiy normalar faqat moddiy boyliklarni qo'lga kiritishga qaratilmaydi. Agar oliy o'quv yurti salbiy obro'ga ega bo'lsa, uning o'qituvchilari yoki rahbariyati o'qishga kirish, baholar yoki diplom berish uchun pora olayotgan bo'lsa, bu uning bitiruvchilarining mehnat bozoridagi mavqeiga salbiy ta'sir qiladi. Ichki bozorda bitiruvchilar davlat korxonalariga ishga joylashganda talab qilinmagan mutaxassis bo'lib chiqish xavfi kamroq bo'lsa-da, biroq xususiy sektorda, ayniqsa, xalqaro mehnat bozorida xodimlarni yollab ishlaydigan kompaniyalarda korrupsiya bo'yicha salbiy obro'ga ega bo'lgan oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar turli xil shakllarda sodir etiladi.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari – oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning turli ko'rinishlari hisoblanadi.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllari mavjud: davlatga qarashli OTMda byudjet mablag'larining talon-toroj qilinishi; OTMni akkreditatsiya qilish uchun pora berish; oliy ta'limga oid diplom va boshqa hujjatlarni noqonuniy usulda olish; tanlov natijasini hisobga olmagan holda OTMni ro'yxatdan o'tkazish; talabalarni baholash jarayonida o'qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy tovlamachilik sodir etish; o'qishni istamagan talabalarning o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim qilishi; hamkasblarning va rahbariyatning mas'ul o'qituvchilarga talabalarni qo'llab-quvvatlash masalasida korrupsiyaviy bosimlar o'tkazishi.

OTM sohadagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllariga e'tibor qaratish lozim:

- OTMga kirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni baholash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarining davomatini yashirish maqsadida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- budjet mablag'larini talon-toroj qilish;
- rahbar xodimlarning va hamkasblarning mas'ul o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim o'tkazishi;
- OTM xodimlaridan korrupsiyaviy maqsadlarda noqonuniy pul mablag'larini yig'ish;
- talabalarga kitoblar va boshqa o'quv materiallarini majburiy sotish hamda buning uchun ularni turli jabhalarda qo'llash;
- OTMni bitirganligi to'g'risida soxta diplom yoki boshqa hujjatlar berish;
- kadrlarni lavozimga tayinlash, ularni ishdan bo'shatish, moliyaviy rag'batlantirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- OTMga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni yotoq joyi bilan ta'minlash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar.
- Sohadagi korrupsiyaviy huquqiy munosabatlar davlat yoki mintaqa bo'yicha dolzarb va o'ziga xos bo'ladi.

- Jumladan, Italiyada mafiya va OTM o'rtasida korrupsiyaviy munosabatlar mavjudligi sababli tadqiqotchilar tomonidan bu holat sohadagi yangi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli sifatida baholandi. AQShda firibgarlik, plagiat va talabalar uddaburonligi keng tarqalgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida OTMga kirish va o'qishni tamomlash jarayonidagi poraxo'rlik dolzarb hisoblanadi. Buyuk Britaniyada OTMni akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq korrupsiya muhim ahamiyat kasb etadi, Xitoyda o'qishni bitirganligi to'g'risida soxta sertifikat berish keng tarqalgan. Birgina AQShda xususiy oliy ta'lim rivojlanishi natijasida universitetlarning davlatdan qarzlari 1,7 mln. dollardan 17,0 mln. dollarga ortdi va bu turli firibgarliklarning sodir etilishiga olib kelmoqda.

- Korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga vujudga kelishini xalqaro tajribadan ko'rish mumkin. Masalan, xususiy oliy ta'lim rivojlangan AQSh va Yevropa mamlakatlarida OTMni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy holatlar ko'p uchraganligini inobatga olsak, mamlakatimizda xususiy OTM endi rivojlanayotganligini hisobga olgan holda, mazkur huquqbuzarlik yaqin kelajakda dolzarb shaklga aylanishi ehtimoli borligini e'tiborga olish zarur.

Oliy ta'limdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) ta'limdagi maxsus korrupsiya:

- akademik korrupsiya: talaba – fakultet va talaba – boshqaruv xodimi o'rtasidagi korrupsiya;
- xizmat ko'rsatishdagi korrupsiya: talaba – xizmat ko'rsatuvchi xodim va talaba – boshqaruv xodimi o'rtasidagi korrupsiya;

2) boshqaruvdagi korrupsiya.

Xuddi shu kabi, korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllarini OTMning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab, davlat, xususiy va xorijiy OTMdagi huquqbuzarliklarga ajratish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan potensial zaif nuqtalarni bartaraf qilish bo'yicha choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– axloq kodeksini qabul qilish. Huquqiy asoslarni mustahkamlash, korrupsiyaning oldini olish va natijaga e'tibor qaratish bo'yicha xabardorlikni oshirish;

– tayinlash. Martaba va martaba pillapoyasi bo'ylab ko'tarilish va taqdirlashda shaffof mezon va tartiblarni joriy qilish;

– monitoringni davlat xizmati tizimiga uyg'unlashtirish. Ta'lim tizimidagi korrupsiyani aniqlash va oldini olish bo'yicha vakolat, malaka va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan shikoyatlarni qabul qilish va ular bilan ishlashning ishonchli va yuqori darajada mustaqil tizimlarini ta'minlash uchun mos keluvchi tartib-taomillarni hamda institutsional tuzilmani ishlab chiqish [7].

Ta'lim sohasida korrupsiya natijasida yetkazilgan moliyaviy yo'qotishlarni baholash va qaysi korrupsiyaviy xatti-harakatlar – yirik korrupsiya, jumladan, infratuzilmani rivojlantirish (yangi binolar va inshootlarni qurish) yoki mayda korrupsiya (bunda har bir alohida holatda paydo bo'ladigan miqdorlar ahamiyati unchalik katta bo'lmaydi) ko'proq salbiy ta'sirga egaligini aniqlash qiyin. Maishiy korrupsiya keng tarqalgan, masalan, bolalarni maktabga qabul qilish yoki yoshlarning oliy o'quv yurtiga kirishi uchun ota-onalaridan olinadigan noqonuniy yig'imlar – ulardan aholining kam ta'minlangan qismi hammadan ko'p zarar ko'radi.

Kambag'allik, davlat xizmatchilari va ta'lim sohasi xodimlari ish haqining pastligi korrupsiyaga oid xatti-harakatlarni sodir qilishga olib keladigan asosiy omillardan biridir. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik past bo'lsa, maishiy korrupsiya darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Kamroq rivojlangan mamlakatlarda maishiy korrupsiya ba'zan normal xulq-atvor hisoblanadi (bu yirik korrupsiyaga tegishli emas, u hamma joyda uchraydi, qarorlar qabul qilishning yuqori darajasida dunyoga keladi va qo'llab-quvvatlanadi).

Ta'limdagi tizimli korrupsiya – bu davlat xizmati va ta'lim muassasalarida axloqiy normalarning yo'qligi, rasmiy qoidalarni bilmaslik, korrupsiyaga oid xatti-harakatlarni aniqlash yoki amalga oshirish, ularning sabablarini tushunish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda zaruriy choralarni ko'rishning iloji yo'qligi bilan tavsiflanadi. U davlat va jamiyat korrupsiya hayotning ajralmas va muqarrar qismi bo'lib hisoblanishiga rozi bo'lganda va buni amalda tan olganda vujudga keladi.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar quyidagi xususiyatlarga ega:

*Birinchi*dan, oliy ta'limda munosabat sub'yektlari sonining ko'pligi va sohada korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilish darajasining yuqoriligi.

Jumladan, 2022-yil holatiga ko'ra Respublikada 1 mln. nafardan ortiq bakalavriyat, 200 ming nafardan ortiq magistr talabalar ta'lim olishi, 30 mingga yaqin professor-o'qituvchilar mehnat qilishi buning yorqin misoli bo'ladi [8]. Mazkur sub'yektlarning deyarli har kuni o'zaro munosabatga kirishishi va bu jarayonda inson omilining o'ta yuqoriligi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelishi mumkin;

*Ikkinchi*dan, talabalarni baholash jarayonidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning ko'zga ko'rinmasligi, munosabat sub'yektlari va jamoatchilik tomonidan bu turdagi harakatlarning ahamiyatsiz huquqbuzarlik sifatida baholanishi.

Xususan, talabaning pul berib yoki tanish mansabdorlar orqali ijobiy baho olishi o'qituvchi va talabalar tomonidan jinoiy huquqbuzarlik sifatida qabul qilinmaydi. Mazkur mayda korrupsiyaviy harakatlarning o'qish va ish faoliyatida muntazam sodir etilishi ularni o'qituvchi va talabalar uchun oddiy holga aylantiradi.

Uchinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar davriy asosda sodir etilish xususiyatiga ega.

Jumladan, har yili OTMga kirish imtihonlarining o'tkazilishi, yilda ikki marta oraliq, yakuniy imtihonlarni joriy etilganligi va bitirish kurslarida yakuniy davlat attestatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarning topshirilishi holatlarini misol qilib keltirish mumkin. Davriy asosda korrupsiyaviy o'choqlarning yuzaga kelishi huquqbuzarlar uchun uzoq va puxta tayyorgarliklar (korrupsiyaviy sxema) ko'rish imkoniyatini yaratadi hamda bu sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori bo'lishiga olib keladi;

To'rtinchidan, abituriyent va talabalar uchun oliy ma'lumotga ega bo'lish katta hayot yo'lidagi hal qiluvchi nuqta, ko'p ehtimol bilan uning kelajagi uchun ko'pri bo'lishi alohida bir xususiyat. Ushbu muhim hayot bosqichida ijobiy natijaga qonuniy yo'l bilan erisha olmagan shaxslar korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga urinadi;

Beshinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiya bo'lajak kadrlarda korrupsiyaviy illatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, talabaning o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri korrupsiyaviy munosabatlarga kirishishi uni savodsiz kadr bo'lishiga olib kelishi bilan bir qatorda, kelgusi ish faoliyatida ham korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga o'rgatib boradi. Zero, sohada korrupsiyaning avj olishi korrupsiyaga moyil bo'lgan bo'lajak kadrlar uchun tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi;

Oltinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiya boshqa sohalarda ham korrupsiyaning keng tarqalishiga xizmat qiladi.

Xususan, OTMga pora berish yo'li bilan kirgan va uni korrupsiyaviy yo'llar bilan tugatgan talaba davlat xizmatining turli sohalariga, jumladan sog'liqni saqlash, qurilish, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalarda mehnat faoliyatini davom ettiradi va bu o'z navbatida ushbu davlat xizmati sohalarida korrupsiyaning keng tarqalishiga olib keladi.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli, tasnifi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga, sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlashga imkon beradi.

Mamlakatimizda korrupsiya muammosi bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar o'tkazgan olim-professor Sh.R. Qobilovning [9] asosli ta'kidlashicha: "Umuman ta'lim masalasiga e'tiborsizlik, uning faoliyatiga harom-harishni, firibgarlikni aralashtirish mudhish oqibatlarni yuzaga keltiradi. Buni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ko'rsatdi. Shu o'rinda Janubiy Afrika Respublikasi Stellenboss universiteti peshtoqiga yozib qo'yilgan quyidagi iborani iqtibos sifatida keltirishni o'rinli, deb topdik:

"Har qanday millatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofali raketa shart emas. Buning uchun ta'lim sifatini tushirib, imtihonlarga aldov aralashtirishning o'zi kifoyadir.

Bu tarzda ta'lim olgan shifokorlar qo'lidan bemorlar o'lim topadi, quruvchilar qurgan uy va binolar vayron bo'ladi, iqtisodchi va hisobchilar qo'lida moliyaviy resurslar sovuriladi, adolat ham shunday huquqshunos va sudyalalar qo'lida zavol topadi.

Ta'limning inqirozi – bu millat inqirozidir".

Haqiqatan ham, ta'lim sohasidagi korrupsiya boshqa sohadagi korrupsiyaning paydo bo'lish turlari va shakllarining manbai hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi korrupsiyaning xavfliligi shundaki, u har yili boshqaruv va xalq xo'jaligining turli sohalarini bilim, ko'nikma va malakaga ega mutaxassislar bilan to'ldiradi. Nafaqat o'quvchilari, balki pedagog xodimlari korrupsiyalashgan tashkilotda bilim olgan mutaxassis, korrupsion bitimga kirishishga tayyor yosh kadr bo'lib shakllanishini unutmastik kerak.

Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaning bo'lishi kelajakka xavf soladigan eng katta tahdid sanaladi. Ta'limdagi korrupsiya olib borilayotgan islohotlarni puchga chiqaradi va yangi "korrupsiyaga moyilligi bor kelajak avlod"ni o'stirib chiqaradi.

Oliy ta'lim sohasida qonun buzilishi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish bugungi kun muammosi hisoblanadi. Shu bois ham, 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat Dasturida [10] yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilanganligi bejiz emas.

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [11] asosida "Korrupsiyasiz soha" loyihasi ishga tushirildi. Bu jarayonda asosiy e'tibor korrupsion harakatlarni sodir etish imkoniyatini qisqartirishga qaratildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham bu tajriba yaxshi samara berdi. **"Oliy ta'lim korrupsiyasiz soha"** dasturi asosida oliy o'quv muassasalariga qabul jarayonini shaffof va adolatli o'tkazish maqsadida, avvalo, bakalavriatga hujjat topshirish jarayoni onlayn amalga oshiriladigan bo'ldi. Quyida mamlakatimiz Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik borasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar tafsilotiga to'xtalamiz [12].

Abituriyentlarga bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etish imkoni berildi. Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan kirish test sinovlarini jamoatchilik va aholi to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu maqsadda barcha bosqichdagi imtihonlar katta pavilonlarda o'tkazilmoqda.

Kasbiy-ijodiy imtihonlar esa ikki bosqichda, ya'ni har bir yo'nalish o'z ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tomonidan onlayn translyatsiya qilingan holda tashkil etildi. Ijodiy imtihonlardan so'ng majburiy 3 ta fan ona tili, matematika va O'zbekiston tarixi bo'yicha DTM tomonidan test sinovlari o'tkazildi.

Magistraturaga qabul jarayonini adolatli va shaffof o'tkazish uchun davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul abituriyentning bakalavriat diplom bali o'rtacha ko'rsatkichi hamda xorijiy tilni bilish darajasi bo'yicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikat balli asosida, ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirildi hamda qo'shimcha imtihon o'tkazish amaliyotidan voz kechildi. Ushbu o'zgarish mazkur jarayonda uchraydigan korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

O'qishni boshqa turdosh ta'lim maskanidan ko'chirishning korrupsiyadan holiligi ta'minlanmoqda. Talabalar o'qishini ko'chirish hamda tiklashda barcha jarayon ochiq va shaffof bo'ldi. Arizalarni qabul qilish, ko'rib chiqish va qaror qabul qilish onlayn amalga oshirildi. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasasining biridan boshqasiga talabalar o'qishini ko'chirishga faqatgina quyidagi ikkita holatda ruxsat berildi:

birinchisi, talaba oila qurgani munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim muassasasiga o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda;

ikkinchisi, davlat organlarining xodimlari ish joyi o'zgargan taqdirda uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi o'qishini ko'chirish (tegishli vazirlik (idora) rahbarining tavsiyasi asosida) uchun murojaat qilganda.

Davlat oliy ta'lim muassasalararo o'qishni ko'chirish bo'yicha murojaatlar soni haddan ziyod ko'p va bu jarayon korrupsion alomatlardan holi emas edi. Bu ko'rsatkich Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 28 ming, 2021-yilda 56 ming nafar talaba davlat oliy ta'lim muassasalararo o'qishni ko'chirish istagini bildirgan.

2022-yilda 100 mingdan oshishi kutilgan edi. Albatta, 100 ming talaba o'z o'qishini muvaffaqiyatli ko'chirib olish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishga harakat qilar va bu jarayonda nafaqat tizim mutasaddilari, balki ta'limga umuman aloqasi bo'lmagan firibgarlar tuzog'iga tushib qolish holati ko'p kuzatilgan [13].

Endi oliy ma'lumot olish niyatidagi yoshlar avvaldan o'qishini ko'chirib ketish niyatida emas, balki oliy ta'lim muassasasini to'g'ri tanlagan holda, shu o'quv dargohini bitirish maqsadida o'qishga kirishga intiladi.

Mavjud talab va ehtiyojdan kelib chiqib, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab, mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga o'zaro kelishuv asosida oliy o'quv yurtlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish vakolati berildi.

Talabalar o'qishini xorijdan ko'chirishda arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish maxsus portal yordamida bajariladi. Chet eldan o'qishini O'zbekistonga ko'chirish istagida bo'lgan talabalarining imtihonga tayyorlanishiga yetarlicha vaqti bo'lishi maqsadida davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishni ko'chirish bo'yicha o'tish balli 2022-yil aprel oyidayoq ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi.

Masalan, tabiiy fanlar hamda san'at yo'nalishlarida o'tish balli 80 ball, matematika hamda pedagogika yo'nalishlarida 94 ball, sotsiologiya va psixologiya, jurnalistika, iqtisod yo'nalishlarida 105 ball, huquq yo'nalishida 140 ball, sog'liqni saqlash sohasida o'tish balli 129 ball qilib belgilandi.

Bilimni baholashdagi shaffoflik korrupsiyani oldini oladi. Eng keng tarqalgan korrupsiya elementlari mavjud bo'lgan yana bir tizim talabalar bilimni baholash tartibi ham to'liq o'zgartirildi hamda bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni bilan oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish belgilandi.

2021-yilda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha 14ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Oliy va o'rta maxsus, Bandlik va mehnat munosabatlari hamda Moliya vazirliklarining "Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qo'shma qaroriga (ro'yxat raqami 2859-3, 2021-yil 12-may) muvofiq, OTMlarda Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limlari tashkil etildi.

- Bilimli yoshlarni adolatlik va shaffoflik tamoyillari asosida qabul qilish mexanizmlari joriy etilib, bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

- Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlari imtihon.edu.uz platformasida onlayn translyatsiyasi tashkil etilib, imtihonlarda korrupsion omillarni minimallashtirish maqsadida imtihon oluvchi komissiya a'zolari tarkibi turli oliy ta'lim muassasalaridan jalb qilingan professor-o'qituvchilardan shakllantirildi.

- Magistraturaga qabulda 2-bosqichli tanlov jarayoni yo'lga qo'yilib, magistraturaga kirishda hujjatlar magistr.edu.uz platformasida onlayn shaklda qabul qilindi.

- magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisligiga mos fanlar bo'yicha imtihon jarayonlari imtihon.edu.uz platformasida onlayn translyatsiya qilinishi hamda natijalar 3 kun muddatda OTM tomonidan DTMga taqdim etilishi va OTM rasmiy veb-saytida e'lon qilindi.

- chet tili bo'yicha test sinovlari Davlat test markazi tomonidan kuzatuv kameralari va onlayn kuzatish test2021.uz imkoniga ega bo'lgan katta pavilonlarda o'tkazildi.

- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktorantura)ga kirish uchun o'tkaziladigan imtihon jarayonlari imtihon.edu.uz platformasida onlayn translyatsiya qilindi.

- Ikkinchi mutaxassislikka hujjat topshirish uchun ikkinchitalim.edu.uz, akademik litseylarga hamda professional ta'lim muassasalariga o'qish kirish uchun litsey.edu.uz, kasb.edu.uz, kollej.edu.uz, texnikum.edu.uz hujjatlarni onlayn topshirish platformalari ishlab chiqildi va joriy etildi.

OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, oliy ta'lim tizimida jarayonlarni avtomatlashtirish, byurokratik to'siqlar yuzaga kelishining oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish maqsadida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS) ishlab chiqildi.

2021-yil 1-sentabrdan boshlab OTMlarda bosqichma-bosqich joriy etish orqali:

- "O'quv jarayoni" modulida guruh jurnali, dars jadvali, imtihonlar jadvallari,
- talabaning reyting daftarchasi, o'zlashtirish qaydnomalari, davomat hisobotlari, diplom va akademik ma'lumotnomalar raqamlashtirildi;

- "Ma'muriy jarayon" modulida oliy ta'lim muassasasi strukturasi, talabalar kontingenti va ularning harakati, professor-o'qituvchilar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish hamda hisobotlarni tayyorlash raqamlashtirildi;

- "Ilmiy jarayon" modulida professor-o'qituvchilarning ilmiy loyihalari, maqolalari va ilmiy-uslubiy nashrlari, ilmiy izlanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda o'qituvchilar va kafedralarning ilmiy reytingini baholash masalalari raqamlashtirildi;

- "Moliyaviy jarayon" modulida talabalarining QR-kodli to'lov-shartnomalarini shakllantirish, talabalarga elektron ko'rinishda taqdim etish, shartnoma to'lovlari monitoringini yuritish, talabalarga stipendiya belgilash to'g'risidagi ma'lumotlar tizim orqali amalga oshiriladi.

- Moliya vazirligining "UzASBO" axborot tizimi bilan axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. 2021/2022-o'quv yilidan boshlab talabalarining QR-kodli to'lov-shartnomalarini t-kontrakt.edu.uz axborot tizimida shakllantirish imkoniyati yaratildi.

- Imtihon natijalariga ko'ra, talabalikka tavsiya etilmagan, biroq tabaqalashtirilgan to'lov-shartnoma asosida o'qish istagini bildirgan abituriyentlar uchun onlayn shaklda ariza qoldirish hamda to'lov-shartnomani onlayn qabul qilish imkonini beruvchi t-kontrakt.edu.uz axborot tizimi ishlab chiqildi va ishga tushirildi.

Mazkur axborot tizimi Davlat test markazi bazasi bilan integratsiya qilindi va abituriyentlar to'plagan bali bo'yicha kontrakt miqdori avtomatik shakllantirilishi hisobiga tabaqalashtirilgan to'lov-shartnoma miqdorini belgilash bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlarning oldi olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Sh.Mirziyoyev, "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi". 3-jild. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 65-66-b.

2. M.Sh.Mirziyoyev, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. – T., – 2020. – 13-b.

3. Любкина Н.А., Лубский Р.А. Коррупция в сфере высшего образования: основные проблемы и способы их разрешения в современном российском обществе // Юрист-правоведъ. – 2018. – №3 (86). – С. 45-54.

4. Момотова О.Н., Руденко М.Н. Особенности изучения коррупции в сфере образования // Экономика и социум. – 2016. – № 9 (28). – С.17.

5. Акунченко Е.А., Вырва П.А., Дамм И.А. Основы коррупционного просвещения в сфере образования / под ред. И. А. Дамм, Н. В. Щедрина. – Красноярск: АСТ, 2016. – С. 78.

6. Дамм И.А. Коррупция в сфере образования: понятие, характерные черты, формы и виды // Актуальные проблемы экономики и права. – Сибирский федеральный университет, 2019. – Т. 10. – № 4. – С. 6.

7. Сычева А. В. Коррупция в сфере высшего образования: коррозия правосознания // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Юридические науки. – 2015. – Т. 1 (67). – № 4. – С. 21.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari.

9. Qobilov Sh. R. Korrupsiya: kelib chiqish sabablari va unga qarshi kurashishning jahon tajribasi. –T., 2011. –244 b; Qobilov.Sh. R. Korrupsiyaga qarshi kurashish: iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy choralari va yo'llari. Monografiya. –T., "O'qituvchi" NMIU. 2015. –160 b; Qobilov Sh.R. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlar va oldini olish yo'llari. Monografiya // –T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi "O'qituvchi" NMIU. – 2019. – 368 b Qobilov Sh. R. "Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish". Darslik. –T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 352 b; Qobilov.Sh. R. Korrupsiyaning sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar va ularning oldini olish choralari. Monografiya. // Mas'ul muharrir y.f.d., prof. Q. R. Abdurasulova. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. –224 b.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoniga 1-ilova.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni /<http://www.lex.uz>.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqarmasining ma'lumotlari asosida.

13. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati ma'lumotnomasi – 2022-yil.